

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235868>

## O'ZBEK TILIDAGI PARONIMLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

**M.A.Hamrayev**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

[m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**Аннотация.** Mazkur maqolada o'zbek tilidagi paronimlar, paronimiya hodisasining yuzaga kelish sabablari, omonimlar, omofonlar, omoformalar, variantdoshlikdan haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Paronimlar, unli tovushlar, undosh tovushlar, reduksiya, paronimik juftlik, omonimlar, omofonlar, omoformalar, variantdoshlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются паронимы в узбекском языке, причины возникновения явления паронимики, омонимы, омофоны, омоформы и вариантовые написания. рассматривается.

**Ключевые слова.** Паронимы, гласные, согласные, редукция, паронимические пары, омонимы, омофоны, омоформы, вариантовые когнаты.

**Abstract.** This article examines paronyms in the Uzbek language, the causes of the phenomenon of paronymy, homonyms, homophones, homoforms and variant spellings. considered.

**Key words.** Paronyms, vowels, consonants, reduction, paronymic pairs, homonyms, homophones, homoforms, variant cognates.

## Kirish.

Tilimizda shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra **paronimilar** guruhiga mansub birliklar ham mavjud. Paronimlar yunoncha *para* – yonidagi, *onuma* – nom degan ma’noni ifodalaydi. Boshqa shu kabi guruhlardan farq qilib, o‘zaro talaffuzigina o‘xhash kamida ikkita so‘zdir. Masalan: *amir* – *amr*, *xalos* – *xolos*, *asir* – *asr* juftliklari bunga misol bo‘la oladi. Shunisi borki, bu guruhga kiruvchi so‘zlarning aniq chegarasini belgilash sal mushkulroq. Quyida shu muammoni hal qilishga urinib ko‘ramiz.

## Asosiy qism.

Avvalo, bu guruh so‘zlardagi talaffuzdoshlikning yuzaga kelish sabablarini aniqlaymiz.

**1. Paronimikning** asosiy xususiyati shuki, ular talaffuz jihatdan o‘xhash (yuz foiz emas) bo‘ladi. Bunda quyidagi holalar kuzatiladi: a) **birinchi holat**: tarkibidagi undosh tovushlarning uchta xususiyatidan (hosil bo‘lish o‘rni, hosil bo‘lish usuli, ovoz va shovqin ishtiroki) ikki jihatdan o‘xhash bo‘lib, bir jihatdan noo‘xhash bo‘ladi: *adib* (*badiiy asar yozadigan shaxs*) – *adip* (*to ‘n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato – mag‘iz*). Bu so‘zlar tarkibidagi **p** va **b** tovushlarning har ikkalasi ham hosil bo‘lish o‘miga ko‘ra lab-lab tovushlaridir, hosil bo‘lish usuli jihatdan ham bir xil, ya’ni sof portlovchi undoshlardir. Farqi: biri jarangli, ikkinchisi esa jarangsizdir, xolos. Bu undosh tovushlarga tegishli xususiyatlar. Bular natijasida paronimlik yuzaga kelgan.

b) **endi** unli tovushari jihatidan o‘xhashlikni ko‘rib chiqamiz: *Xalos* (ozod, erkin) – *xolos* (faqat, faqatgina) juftligi. Bu juftlikdagi so‘zlar o‘zaro **a** va **o** unlilari bilangina farq iladi, shundyam bu unlilar uchta xususiytdan (tilning gorizontal holati, tilning vertikal holati, lablarning ishtiroki) bittasi o‘xhash, ikki jihatdan noo‘xhashdir: ikkala unli ham quyi keng unli. Farqlari: **a** old qator, **o** orqa qator unli; **a** unlisi lablanmagan, **o** esa lablangan unli hisoblanadi. Natijada bunda ham paronimlik yuzaga kelgan.

b) **paronimik** juftlikdagi bitta so‘zga ikkita undosh orasiga talaffuzda unli orttiriladi va natijada paronimlik yuzaga keladi. *Azim* (g‘oyat katta, ulkan) – *azm* (qat’iy qaror) juftligida shunday

hodisa yuz beradi. Bunda ikkinchi so‘zda *i* unlisi orttiriladi. Natijada bunda ham paronimlik yuzaga kelgan.

d) **diplomat** (davlatlar bilan aloqa qilib turuvchi hukumat vakili)— **diplomant** (diplom ishini bajarayotgan talaba). Ko‘rinyaptiki, ikkinchi so‘zdagi *n* tovushi talaffuzda deyarli eshitilmaydi. Natijada, paronimlik yuzaga keladi.

Paronimlarni **yondosh** hodisalardan farqlash lozim. Bular quyidagilardir.

**1. Omofonlar** talaffuzi bir xil, fonemalar miqdori teng, yozilishi va ma’nosи har xil bo‘lgan leksemalardir: *to ‘n(kiyim)* – *ton* (*tovush toni*). Paronimlarda esa talaffuzi bir-biriga yaqin bo‘ladi, fonemalar miqdori teng bo‘lmasligi mumkin: *Ilk* (*avvalgi*) - *Ilik* (*suyak ichidagi yog ‘simon modda*)

**2. Variantdoshlik.** Bu hodisa bir leksemaning turlicha ko‘rinishidir: *gado* – *gadoy*, *do ‘ppi* – *to ‘ppi*<sup>1</sup>. Paronimlar esa faqat talaffuzigina o‘xshash, yaqin leksemalardir.

**3. Omonimlar** talafuzi ham bir xil, yozilishi ham bir xil, lekin ma’nolari har xil leksemalardir: *bog* ‘(*daraxtzor*) - *bog* ‘(*bir bog ‘o ‘t*)

**4. Omoformalar** talaffuzi, yozilishi va ayrim grammatik shakllari jihatidan bir xil, lekin ma’nolari va so‘z turkumi har xil leksemalardir: *teri* ( *ot: peshona teri, 3-shaxs, birlik egalik shaklida*) – *teri* (*ot: odam va hayvon tanasining tashqi qoplami, tana a’zolarini tashqi ta’sirlardan himoya qiluvchi* va turli fiziologik vazifalarni bajaradigan posti .

**5. Dubletlar** mazmunan bir tushunchani ifodalovchi, kelib chiqish nuqtai nazaridan umumiylıkka ega bo‘lgan va ko‘pincha tilga turli davrda kirib kelgan o’zlashtirma so‘zlar hisobiga vujudga keladigan ikki yoki undan ortiq so‘zlardir. Masalan: *shuvoq* — *suvoq*, *supurgi* — *shupurgi*.<sup>2</sup>

**6. “Omograflar** — yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo‘lgan leksemalar: *soya* («quyosh nuri tushmaydigan salqin joy») — *soya* («dukkakli o‘simlikning bir turi va uning doni»), *rom* (oyna o‘rnatilmagan deraza) — *rom* (spirtli ichimlikning bir turi) kabi”<sup>3</sup>. Demak, bular faqat yozilishigina bir xil, ammo talaffuzi va ma’nosи har xil bo‘lgan leksemalardir.

<sup>1</sup> Jamolxonov H.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.183-bet.

<sup>2</sup> Jamolxonov H.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.180-bet

<sup>3</sup> Ma’rufov A. Paronimlar lug’ati (*talaffuzi yaqin so‘zlar*). «O‘qituvchi» nashriyoti, Toshkent - 1974. 3-bet

Shuni ham aytish lozimki, paronimlikning yuzaga kelishida so‘zning ijtimoiy tomoniga ham e’tiborni qaratish kerak, ya’ni paronimik juftlikdagi qaysi bir komponent faolroqligi ham hisobga olinishi kerak. Masalan, adresant – **adresat, diplomat** – diplomant, abro‘ - **obro‘, alam** – a’lam, arkon – **arqon, asr** – asir, **ahil** – ahl, **bayon** – boyon, **borlik** – borliq, vaqf – **voqif, gal** – gall, ganj –**ganch, dakki** – daqqi, **daha** – daho kabi bir qancha juftliklardagi qaysi component faolroq bo‘lsa, til egasi shu so‘zni asos qilib oladi (faolroqlari ajratib berildi) va u paronimlikka asos bo‘lib hisoblanadi.

### Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, paronimik juftliklarni fonetik tahlil qilish jarayonida paronimlikning yuzaga kelish sabablarini ilmiy jihatdan isbotlash mumkin ekan. Shuningdek, paronimiya hodisasini omonimiya, variantdoshlik, omofoniya va omoforma, omograf kabi yondosh hodisalardan farqlash lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –464 б.
2. Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati (*talaffuzi yaqin so‘zlar*). «O‘qituvchi» nashriyoti, Toshkent – 1974.
3. Jamolxonov H.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.
4. M.Hamrayev, D.Shodmonqulova, N.Do‘sanova. Ona tili vabolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili) darslik) “Grandkondoprint”, Toshkent, 2023-yil.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. –Т., 2008, 4-jild.